

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY FAOLIYATIGA MOSLASHUVINI O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

To'raxonova Mohinur Abdunazar qizi
TerDPI psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga moslashuvining o'ziga xos psixologik xususiyatlari hamda ularning yangi psixologik kasbiy muhitga moslashuvi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kasbiy faoliyat, kasbiy muammolar, komponenti, kasbga yaroqlilik, psixologik moslashuv.

Har qanday mamlakatni gullab yashnab ravnaq topishida asosan o'z kasbining yetuk fidoiysi bo'lmish o'qituvchilarning o'rni va roli judda ham ahamiyatlidir. Masalan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi katta ahamiyatga egadir.

Kasb tushunchasi - bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi.

Ma'lumki pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchi shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlarga qaratilgan.

O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir:

- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etish;
- oliyanobligi, aql-farosati, ma'naviy rok va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, bunday xislatlarni jamiyat xohishi bo'yicha bolalarga singdirib berishi;

- o'zini qoiga ola bilishi, sabr-toqatli, matonatligidir.

Jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yidigan asosiy talablari quyidagichadir:

shaxsni ma'naviy-ma'rifiy tomonidan tarbiyalashning milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarining mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani, tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;

- keng bilim saviyasiga ega bo‘lish, barcha sohalarga doir bilimlar bilan quronish; - yosh pedagogik psixologik, ijtimoiy psixologiya va pedagogika yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo‘lishi; - o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo‘lib, o‘z kasbi sohasida jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo‘lishi; - ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi; - o‘z ishiga iqtisodiy yondashishi; - bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi; - pedagogik texnikani (mantiq, nutq; ta’limning ifodalı vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi; - o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi. Ko‘pchilik psixologlar shu bilan birga o‘zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamонавиyo‘qituvchilar uchun zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Kasbiy sifatlar pedagogik faoliyat muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri bo‘lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat’iyatlik, diqqatni taqsimlay olish, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik, pedagogik takt va pedagogik xayolning rivojlanganligi, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, shaxsiy namuna ko‘rsatish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo‘shish kabi jihatlar bilan tavsiflanadi.

E.A.Klimov tadqiqotlarida “Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib bunda insondon jismoniy va ruhiy kuch talab qiladi”, deya ta’kidlaydi.

V.G.Makushin esa, kasb - bu shunday faoliyatki, unig yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi, deya ta’kidlaydi. Mavjud ta’riflarni umumlashtirib quyidagicha xulosa qilish mumkin: “Kasb mehnat faoliyatining asosiy shakli bo‘lib, uni bajarish uchun inson, albatta, ma’lum bilim, malaka va ko‘nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak” .

Mutaxassislik - kasbiy ta’lim, tayyorgarlik yo‘li bilan o‘zlashtirilgan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmuasi bo‘lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma’lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o‘ziga xos vaziyatlar orqali umumuy natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Mashhur rus psixologi I.K.Platonovning fikriga ko‘ra, “kasbiy tayyorgarlik - bu o‘zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir. E.Seytxalilov, B.Rahimov va N.Azizzodjatevalar “kasbiy tayyorgarlik - shaxsning

aniq kasbiy faoliyat turi bilan shug‘illanishiga imkon beruvchi nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtirish jarayonidir”, deya izohlaydilar. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirv hamda A.Pardayevlar kasbiy tayyorgarlik negizida “Bo‘lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy nazariy va amaliy tayyorgarligi” aks etish kerakligini ta’kidlaydilar. Mualliflarning fikriga tayangan holda, ”kasbiy tayyorgarlik” tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Kasbiy tayyorgarlik - maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish - DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni mavaffaqqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlanish jarayonidir. Kasbiy tayyorlash - bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarni o‘zlashtirish, individuallashuvi demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Zueva S.P. Kasbiy faoliyatda insonning o‘zini o‘zi anglashi // Kontseptsiya. -2013.- № 02 (fevral).
2. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41-46.
3. Berry A. Professional self-understanding as expertise in teaching about teaching. Teach Teach Theory Practice. 2009;15(2).
4. Hargreaves A. The emotional practice of teaching. Teach Teach Educ.1998;14:835–54.
5. To‘raxonova, M. (2023). BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING KASBIY O ‘ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.
6. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41-46.
7. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.
8. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энigma, (32), 82-86.
9. Amirova, N. (2022). THE ATTITUDE TO MOTIVE AND MOTIVATION IN WORLD PSYCHOLOGY. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(11), 149-152.

10. Amirova, N. U. (2023). PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY MOTIVATSIYANING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 212-215.
11. Amirova, N. (2023). O ‘QITUVCHI FAOLIYATIDA MOTIV VA MOTIVATSIYANING AHAMIYATI. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii , 3 (3), 60-66.v